

ABU NASR FAROBIY TA'LIM VA TARBIYAGA OID QARASHLARINING G'OYAVIY MANBALARI

Ibrohimova Muazzam Shuxratjon qizi

Alfraganus universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Falsafa yo'nalishi magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz Abu Nasr Forobiyning hayot yo'li, uning chuqur falsafiy kuzatishlari asosida yaratilgan asarlaridagi pedagogika va psixologiya fanlariga oid bo'lgan fikr va g'oyalar haqida ma'lumot berdik. Shuningdek ta'lim tarbiyaga oid qarashlarini o'rgandik.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, sharq Arastusi, komillik, dunyoviy ilm, "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fozil odamlar shahri", odob-axloq, inson, jamiyat, ta'lim.

Аннотация: В данной статье мы предоставили информацию об образе жизни Абу Насра Фараби, мыслях и идеях, связанных с науками педагогики и психологии, в произведениях, созданных на основе его глубоких философских наблюдений. Мы также изучили их взгляды на образование.

Ключевые слова: образование, Восточный Аристотель, совершенство, мирские знания, «О достижении счастья», «Город добродетельных людей», нравы, человек, общество, образование.

Abstract: In this article, we have provided information about the way of life of Abu Nasr Farabi, the thoughts and ideas related to the sciences of pedagogy and psychology in the works created on the basis of his deep philosophical observations. We also studied their views on education.

Key words: education, Oriental Aristotle, perfection, worldly knowledge, "On the Attainment of Happiness", "City of Virtuous People", manners, human, society, education.

KIRISH.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' Tarxon Forobiy 873-yil Farob shahri tug'ilgan. O'rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgani uchun „al Muallim assoniy“ „Ikkinchi muallim“, Aristoteldan keyin, „Sharq Arastusi“ nomlariga sazovor bo'ldi. Farobiy Sirdaryo sohilidagi Farob (O'tror) degan joyda turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida tavallud topadi. O'sha davrda Movarounnahrda somoniyalar sulolasi hukmronlik qilayotgan edi. Bo'lajak faylasuf boshlang'ich bilimini O'trorda olgandan so'ng, o'qishini Toshkent, Samarqand va

Buxoroda davom ettirdi. Farobiy ilmini yanada chuqurlashtirish maqsadida Bag‘dodga yo‘l oladi. Olim yo‘l-yo‘lakay Eronning yirik shaharlari Ray, Hamadon, Isfahon va boshqa joylarda bo‘ladi. Bag‘dodda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridan kelgan talaba va olimlar to‘plangan edi. Bu yerda ko‘zga ko‘ringan olim-u fuzalolar bilan tanishdi, yunon falsafiy maktabi, turli fan sohalari namoyandalari bilan uchrashib, ulardan ilm sirlarini o‘rgandi. Masalan, Abu Bashar Matta ibn Yunusdan yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Hiylondan esa tibbiyot va mantiq ilmini o‘rgandi. Ba‘zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

"Ta'lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, ma’lum birhunarni egallash uchun zarur bo‘lgan amaliy malakalar", -deydi olim. Forobiyning ta’lim tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g‘oyalari alohida o‘rin tutadi. Forobiyning ta’kidlashicha, tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni bilimli bo‘lishga, to‘g‘rilik va haqiqatni sevishga, jasur, do‘stlarga sadoqatli bo‘lish singari fazilatlarni egallashga intilmog‘i lozimdir. Abu Nasr Forobiy insonga xos hamda uning ma’naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta’lim- tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon hisoblaydi. U insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va eng yetuk yakuni deb biladi. Shunga ko‘ra olim o‘z asarlarida insonga tarbiya va ta’lim berish zarurligini aytadi va bunda ta’lim- tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari asosiy o‘rinni egallashini qayd qiladi. Forobiy insonning ma’naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aql-idrok ongiga va axloqiga e’tibor bergan. Shuning uchun ta’lim- tarbiya uning fikricha aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk qilib yetishtirishga qaratilmog‘i lozimdir. Ta’lim tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat, odatiy malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Forobiy tarbiya berish usullari haqida shunday yozadi:

1. qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi va malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, kasbga intilish harakatga aylantiriladi.
2. majbur etish yo‘lidir. Bu usul majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashdir.

Farobiy o‘z qarashlarida insonning aqliy va axloqiy jihatlariga alohida e’tiborini qaratadi va u "Fozil odamlar shahri" asarida o‘n ikki tug‘ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli inson bo‘la olishini ta’kidlaydi. Bular quyidagilar: "Birinchidan bunday odanning barcha a’zolari mukammal taraqqiy etgan, sog‘lom bo‘lish lozim; ikkinchidan, tez fahm so‘zlovchining maqsadini tez payqay oladigan bo‘lsin; uchinchidan, xotirasi juda kuchli va mustahkam bo‘lsin; to‘rtinchidan, zehni tez va

o‘tkir bo‘lsin; beshinchidan, nutqi ravon, fikri teran, mulohazalarini yorqin bayon eta olsin; oltinchidan, bilish va o‘rganishga ishtiyoqi baland bo‘lib, bilimlarini charchashni sezmasdan o‘zlashtira olsin; yettinchidan, nafsini tiya oladigan, qimor o‘yinlaridan jirkanadigan bo‘lsin; sakkizinchidan haqiqatni sevadigan bo‘lsin; to‘qqizinchidan g‘ururli va vijdonli bo‘lsin, oliyjanob ishlarga intilsin; o‘ninchidan, mol-dunyo yig‘ishga berilmasin; o‘n birinchidan, adolatli bo‘lsin, odamlarni adolatga targ‘ib etadigan bo‘lsin; o‘n ikkinchidan, adolatli bo‘lsin, ammo qaysar bo‘lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o‘zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo‘lsin, o‘zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat’iylik ko‘rsatsin, qo‘rqmas, jasur bo‘lsin, qo‘rqish va ojizlikni bilmasin".

Forobiyning yozishicha, haqiqiy baxtga erishish uchun harakat qiluvchi, o‘zaro yordam qiluvchi, xalqini birlashtirgan shahar — fozil shahar hisoblanadi. Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan va birlashgan kishilar fazilatli jamoa bo‘ladi. Forobiy fikriga ko‘ra, davlatni idora etuvchi shaxs o‘zining fazilat va xulq-odobi bilan ajralib turishi, xususan u 6 ta xislatni egallagan bo‘lishi, ya’ni adolatli va dono bo‘lishi, boshqalarga g‘amxo‘rlik qilishi, qonunlarga to‘la rioya etishi va qonunlarni yarata olishi, kelgusini oldindan ko‘ra bilishi kerakdir. Forobiyning talqinicha, fozil shaharlar yuqori madaniyatli bo‘ladi. Unda yashaydigan xalq o‘zi istagan kasb-hunarni egallaydi. Bunday jamiyatda to‘la erkinlik va teng huquqlik hukm suradi. Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta’limoti uning axloqiy kamolot va baxtsaodatga erishuv hamda insonparvarlik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. U o‘zining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlari markaziga insonni, uning maqsad muddaolarini o‘rganishni, axloqiy kamolot va baxt-saodatga erishuv yo‘llarini ko‘rsatishni qo‘yadi. Axloqiy kamolot deganda, xayr-ehsonli ishlar, go‘zal insoniy fazilatlarni tushunadi. Axloqiy kamolotga xalaqit bembvchi salbiy xislatlarga dangasalik, bekorchilik, bilimsizlik, ongsizlik, kasb- hunarsizlikni kiritadi. Forobiy aql, ilm va ma’rifatni baxtsaodatga erishishning asosiy vositasi deb biladi. Forobiy inson fazilatlarini tug‘ma va yashash jarayonida paydo bo‘ladigan fazilatlarga bo‘ladi. Olimning fikricha, tug‘ma fazilatlarga insonning o‘ta o‘tkir zehniligi, biror narsani bilishga o‘ta qobiliyatligi kiradi. Lekin tug‘ma fazilatlar hayotda kam uchraydi. Asosiy axloqiy fazilatlarni odam yashash davomida egallaydi. Tug‘ma fazilatli odamlar ham tarbiyaga muhtojdir. Agar unday odamni tarbiyalab va to‘g‘ri yo‘lga solib turilmasa, uning qobiliyati tezda so‘nib qolishi mumkindir. Tug‘ma qobiliyat ham nisbiy tushunchadir. Ba’zi kishilar tug‘ma qobiliyatini ishga solib yaxshi natijaga erishsa, boshqalari yomon natijaga erishadi.

Forobiy yetuk faylasuf sifatida ruhiy jarayonlarni insonning aqliy, axloqiy, ma’naviy rivojiga bog‘liq xolda o‘rganishga va talqin etishga harakat qiladi. Shuning uchun ham u o‘z asarlarida sezgilar va aqliy bilish fikrlash kabi jarayonlarga juda katta e’tibor beradi va ular haqida boshqa ruhiy jarayonlar, masalan, xotira, tasavvur, diqqat, his-tuyg‘u, iroda, qobiliyat, malaka kabi shaxsiy xislatlarni bilish jarayoni bilan bog‘liq

holda so‘z yuritadi. Ma’lumki, insonga xos bo‘lgan va uning ma’naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi taffakkur va nutqning rivojlanishi ta’lim-tarbiyaning asosini tashkil qiluvchi muhim jarayon sanaladi. Forobiy inson tafakkuri va nutqining fazilatlarini chuqur o‘rganadi, grammatika va mantiq fanining rivojiga, uning ayrim masalalarini tahlil etishga, juda katta e’tibor beradi. U Aristotelning mantiqqa oid barcha asarlarini chuqur o‘rganadi hamda ularga sharhlar yozadi va mantiqning turli bo‘limlari: tushuncha, hukm, diduksiya, isbotlash kabilarga bag‘ishlangan risolalar yozib, qoldiradi. Olimning ruhiyat va mantiqqa oid fikrlari ta’lim-tarbiya sohasidagi ta’limotning tabiiy, ilmiy, nazariy asoslari bo‘lib xizmat qiladi. Komil ma’naviyat va axloq, inson tarbiyasi masalasi Qadimgi Sharqda G‘arbda, xususan, Qadimgi Yunonistonda har doim mutaffakkir olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelganligi to‘g‘risida bir qancha qimmatli manbalar mavjud. Shu jihatdan, Forobiy Qadimgi Yunoniston faylasuf olimlarining merosini o‘rganar ekan Aristotel, Platon, Suqrot, Pifagor kabi mutafakkirlar asarlari bilan yaqindan tanishib, ularga sharhlar yozadi. O‘zlashtirgan bilimlariga tayangan holda ta’lim-tarbiya jarayonlarida insonning ma’naviy yuksalishi eng asosiy va birlamchi maqsad bo‘lishi kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Forobiy talqinicha, inson dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni. Shu sabab u o‘z ilmiy-amaliy faoliyati davomida yaratgan asarlarida insonga tarbiya va ta’lim berish zaruriyati va buning uchun nimaga asoslanish lozimligi, ta’lim-tarbiya usullari, undan qutilgan maqsad masalalariga yechim ko‘rsatishga asosiy e’tibor qaratadi.

Farobiy musiqani inson tarbiyasiga ta’sir qiluvchi omillardan biri deb billi. U musiqani insonga nafosat, estetik zavq bag‘ishlovchi, his-tuyg‘ulari va axloqini tarbiyalovchi muhim vosita, deb hisoblaydi. Mutafakkir „Musiqqa haqida katta kitob“ nomli ko‘p jildli asarida musiqqa nazariyasi va tarixi, turli musiqqa asboblari, kuylar va ularning ichki tuzilishi, tovushlar, ritmlar, ohanglar haqida ma’lumot berdi; ilmiy iyoqo, ilmiy ta’lif fanlariga asos soldi. Yuqoridagi asarida o‘tmishdagi musiqashunos va tadqiqotchilar musiqqa taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligini alohida qayd qiladi. Shuningdek, kuylar uyg‘unligi, kuy ijro etish usullari haqida so‘z yuritadi. Rivoyatlarda keltirilishicha, Farobiy yangi musiqqa asbobi yaratgan, kuy bastalagan, mohir sozanda sifatida nom chiqargan. Farobiyning aytishicha, musiqiy tasavvurlar inson ruhining eng nozik joyidan qaynab chiqib, ohang holida sezgi quvvatlariga ta’sir qiladi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, alloma fikricha, yuksak axloqiy fazilatlarga rioya qilgan holda rivojlanayotgan har qanday davlat o‘z fuqarolarini, shak-shubhasiz, baxt-saodat yo‘liga olib chiquvchi kuchli quroldir. Inson bilim va namunali axloq egasi bo‘lgandagina yaxshi odat va harakatlarni o‘zida mujassamlashtira oladi, u har qanday yovuz buzg‘unchiliklar ko‘chasiga kirmaydi, aksincha, ularga nisbatan shafqatsiz jang

olib boradi. Falsafa va mantiq, insonshunoslik, jamiyatshunoslik ilmining bu buyuk bilimdoni tomonidan ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya, o'qitishga doir ilg'or g'oyalari o'zidan keyingi ulamolar, pedagoglarning ta'lim-tarbiya va inson kamoloti xususidagi fikr-mulohazalari rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mutafakkirning axloq va uning asosida yosh avlodga tarbiya berish ta'limoti hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, aksincha, axloqiy tarbiyaning yangi usul va qoidalarini ishlab chiqish va ularni rivojlantirishda juda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarini to'g'ri va tizimli yo'lga qo'yish, ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishda muhim manba vazifasini o'tab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2004.
2. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. –T.: “Xalq merosi”, 1993.
3. Forobiy A.N. Risolalar. –T.: “Fan”, 1995.
4. Jalilov Z. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. //Zamonaviy ta'lim. –T., 2017, №5, 38-43- b.
5. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiY. –T.: “Fan”, 19